

BOLANING IJTIMOIYLASHUVIDA OILANING AHAMIYATI

Sultonova Nazokat

FarDU tarix fakulteti ijtimoiy ish yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda boal tarbiyasida oilaning eng muhim, maskan ekanligi uning mustahkamligi bevosita bola hayotining keying palasiga ta'sir o'tkazishi haqida fikrlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *bolalik, ijtimoiy yutimlik, oilaviy munosabatlар, ajrimlar .*

So'nggi o'n yillikda biologik yetimlik bilan taqqoslaganda, ijtimoiy yetimlikning ko'rsatkichlari doimiy ravishda ko'payib bormoqda. Uning asosiy sababi - ota-onalarning oilaviy hayotga tayyor emasligi ,erta turmush qurish va ularning hayotga tayyor emasliklari ,oilaviy munosabatlarni zimmasiga olishga qo'rqish hamda oilasidagi 3 shaxs aralashuvi muammo bo'lib, farzandni boqish va unga ketadigan sarf-xarajat nuqtai nazaridan boquvi qimmatga tushishi sababli undan voz kechish tendensiyasi kuchli. Ammo bolaning hayotida ota-ona uning o'rni beqiyosdir.

Bolaning jamiyatga integratsiyalashida unga moslashishida,ijtimoiylashuvda oila juda muhim o'rin tutadi.Bolaning ijtimoiylashuvi xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning hamma narsani egallashga bo'lган ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir ob'ektiv ehtiyoj -o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Bu hodisa shunda namoyon bo'ladi, shaxsning ijtimoiy ahmiyatga ega hislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi. Shunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir.

Moslashuv subyekt va ijtimoiy muhit faolliklarining yaqinlashuv jarayoni va natijasidir.¹³² Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir. Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lган universal vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: go'dakni emizish va g'amxo'rlik qilish usullari, maishiy va gigiyenik yurish-turish qoidalari, insonni o'rab turuvchi

¹³²Ijtimoiy psixologiya. Islomova N , Andullayeva D .

moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash [va mukofotlash uslublari](#), insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari-muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug'ullanish kiradi.Har bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh ijobjiy va salbiy ta'qiqlar-man etish, ruxsat berish, majburlash chora-tadbirlarini ishlab chiqshadi. Bu choralar yordamida inson xulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me'yoriy qadriyatlarga moslashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvining yetakchi

vositalari muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'yin, o'qish, ijod, sport)dir. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan. Insonning voyaga yetishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo'lgan kishilar muhim o'rinn tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo'ladi. Bolalar va o'smirlar uchun ota-on, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo'shnilar agent bo'lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib agentlar qatoriga turmush o'rtog'i, hamkasblari ham qo'shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o'rinnariga, inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga qarab agentlar ham farqlanadi: faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko'rsatmaydigan. Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvning sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi. Bola qanchalik kichik bo'lsin, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi. Bu vaqtida bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi. bolaning rivojlanishi ikki yo'nalish asosida amalga oshiriladi: ijtimoiylashuv va individualizatsiyalanish. Agar sotsium tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini qabul qilishi bilan bir qatorda o'z navbatida bola o'zining ham individual xususiyatlarini sotsiumga qo'shib borishi mumkin va bu jarayon bolaning jamiyatga integratsiyalanishi deb ataladi.

Bu

jarayonlar spontan, stixiali va tartibsiz holda amalga oshirilishi va aksincha boshqarilib, ma'lum maqsadga yo'naltirilib ham borilishi mumkin. [Bu jarayon esa](#) tarbiyalash deb ataladi. Bolaning ongli, faol va mustaqil faoliyati esa o'z-o'zini,tarbiyalash jarayoni deb ataladi. Jamiyatdagi barcha mutaxassislarning va tarbiyachilarning harakatlari bolaning ijtimoiy adaptatsiyalanishiga qaratilgan.

Bolaning ijtimoiy muhitga moslashuviga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy-ma'naviy fazilatlarning yo'qligi hamda ularning shakllanmay qolishi ijtimoiy dezadaptsiya deb ataladi. Bunday holatlarda ularning oldini olish hamda ma'lum chora-tadbirlar ishlab chiqish kerak

bo`ladi. Demak, bolaning jamiyatda ijtimoiy adaptatsiyalanishiga, uning ijtimoiy statusini qayta tiklashga, yo`qotilgan ijtimoiy munosabatlarni qayta tiklashga qaratilgan faoliyat turini ijtimoiy reabilitatsiya qilish deb ataladi.¹³³

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi "Oila to'g'risidagi qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir". Ushbu qonunda ko'rsatib o'tilgandek oilada bolalarga munosabatda ham mehr-muhabbat ,hurmat va hamjihatlikda bo'lish lozim .Oila kodeksining qabul qilinishidan ko'zlangan asosiy maqsad ham oilaviy munosabatlarning izchilligini tashkil etish va qolipga tushirishdir .

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bola jamiyatga qo'shilishi yani ijtimoiylashuvida oila muhim o'rinn tutadi.Ammo har joyda kamchilik va xatolar bo'lganligi sababli oilada ota-onalarda ijtimoiy pedagogika yetishmasligi sababdan bolaning ijtimoiylashuvida qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin.Bu borada oilalar bilan tushuntirish ishlari olib borish lozim.Mening taklifim shundan iboratki ota ona bo'lish arafasida turgan har bir yosh ota-onaga pedagogik ta'lif tarbiya berish bolani tarbiysi,ijtimoiylashuviga ko'maklashuvchi o'quv dasturlar yaratish lozim.Bundan tashqari ommaviy axborot vositalarida bu haqida teleko'rsatuvarlar eshittirishlarni ko'proq olib borish lozim chunki hozirgi kun bolalari har doim yangilikka intiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ихтиёр Бахтиёрович Хамрақулов (2021). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ БАРПО ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Scientific progress, 2 (7), 586-592.
2. Ихтиёр Бахтиёрович Хамрақулов (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МОХИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ. Scientific progress, 3 (1), 328-334.
3. Хамрақулов Ихтиёр Бахтиёрович (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ИМКОНИЯТЛАРИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 2), 140-146.
4. Хамракулов, И. Б. (2021). Теоретические основы создания и развития малых промышленных зон. In НАУКА СЕГОДНЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ (pp. 49-51).

¹³³ [ijtimoiylashuv.jarayoni - O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligi \(genderi.org\)](http://ijtimoiylashuv.jarayoni.uz)

5. Khamrakulov, I. (2022). Organizational and economic foundations for creating small industrial zones in Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(10), 233-237.
6. Asqarova, A., Xonkeldiyeva, K., Abdumatalibova, X., & Murotova, D. (2021). Issues of increasing the competitiveness of light industry enterprises. In *Наука сегодня: проблемы и пути решения* (pp. 48-49).
7. Ханкелдиева, Г. Ш. (2017). Перспективы развития электроэнергетической отрасли Республики Узбекистан в условиях модернизации экономических отношений. *Бюллетень науки и практики*, (12 (25)), 293-299.
8. Хайдаров, Х., Нурматова, И., & Хонкелдиева, К. (2021). Факторы формирования сильного конкурентного рынка в текстильной промышленности. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ* (pp. 59-61).
9. Ханкелдиева, Г. Ш. (2017). Особенности корпоративного управления в акционерных обществах с государственным участием. *Бюллетень науки и практики*, (11 (24)), 357-363.
10. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Nomonjonova, F. U., Qodirova, S. Q., & Arabxonova, X. A. (2021). Classification Of Competition In The Market Of Light Industrial Goods And The Factors That Shape It. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(01), 43-46.
11. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Abdukarimova, R. A., Xudoyberdiyeva, X. B., & Egamberdiyeva, N. B. (2021). Theories Of Marketing Strategies To Increase The Competitiveness Of Light Industry Enterprises. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(01), 40-42.
12. Хонкелдиева, К., Раҳимова, Ҳ., & Ҳасанхужаева, У. (2021). Предупреждение преступности среди несовершеннолетних. In *Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы* (pp. 34-35).
13. Xonkeldiyeva, K., & Xo'jamberdiyev, J. (2020). Экономика и социум.
14. Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Features of management of textile industry enterprises based on the cluster approach. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 780-783.
15. Zokirova, S. X., Akbarov, R. F., Isagaliyeva, S. M., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Sand Distribution In Central Fergana. *The American journal of interdisciplinary innovations and research*, 3(01), 113-117.
16. Zokirova, S. X., Ahmedova, D., Akbarov, R. F., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Light Industry Enterprises In Marketing Activities Experience Of Foreign Countries In The Use Of Cluster Theory. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(01), 36-39.
17. Xonkeldiyeva K., & Xo'Jamberdiyev J. (2020). IMPROVING ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS OF INDUSTRIAL PRODUCTION. Экономика и социум, (3 (70)), 145-147.

18. Зокирова, С. Х., Хамракулов, Ж. Б., & Кадирова, Н. Б. (2020). Полевая влагоемкость, влажность почв и песков Центральный Ферганы. *Universum: химия и биология*, (5 (71)), 5-9.
19. Хонкелдиева, К., & Мўйдинжонова, М. (2020). Актуальные проблемы решения безработицы в Республике Узбекистан. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 18-19).
20. Хонкелдиева, К., & Хўжамбердиев, Ж. (2020). Проблемы развития организации: управленческий и логистический аспекты. In *Наука сегодня: история и современность* (pp. 17-19).
21. Хонкелдиева, К., & Толибжонова, М. (2020). Механизм формирования инновационного процесса в текстильном производстве как основа адаптации к процессам глобализации. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 15-16).
22. Хонкелдиева, К., & Абдусатторова, З. (2020). Социальная инфраструктура как фактор социально-экономического развития региона. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 17-18).
23. Бахтиёрович, Ҳ. Ж. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАЛАБАЛАРИДА ЭКОЭТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИГА ҚЎЙИЛИДИГАН ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТАЛАБЛАР. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(4), 1-6.
24. Хонкелдиева, К., & Фарохиддинова, З. (2020). Гендерное равенство как ценность права. *Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы: материа*.
25. Хонкелдиева, К., & Мўйдинжонова, М. (2020). Необходимые условия обеспечения гендерного равенства. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 40-41).
26. Хонкелдиева, К., Раҳимова, Ҳ., & Абдусатторова, З. (2020). Проблемы развития социального обеспечения населения. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 42-43).
27. Хонкелдиева, К. (2020). Актуальные вопросы повышения экономического потенциала текстильной промышленности. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 13-15).
28. Хонкелдиева, К., & Фарохиддинова, З. (2020). Гендерное равенство как ценность права. In *Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы* (pp. 61-62).
29. Хонкелдиева, К., & Маматкулова, Ф. (2020). Социально-экономические аспекты устойчивого развития предприятия. In *Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы* (pp. 36-3